

YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLAR

FOREIGN INVESTMENT AND LOANS IN THE INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF THE NEW UZBEKISTAN

**¹Mamatov Baxadir
Safaraliyevich**

*¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Baholash ishi va investitsiyalar" kafedrasining professori, iqtisodiyot fanlari doktori.
ORCID: 0009-0004-6227-5103, E-mail: bahadir_mamatov@mail.ru*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada xorijiy investitsiya va kreditlarning ilmiy-nazariy asoslari, xususan, merkantalizm namoyondalari, mumtoz maktab vakillari, keynschilik nazariyasi va neoliberal qarashlar yoritilgan. Xorijiy investitsiya va kreditlarning Yangi O'zbekistonni innovatsion rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. 2020-2025-yillarda asosiy kapitalga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi va salmog'i hamda yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning hajmi tahlil qilinib, muhim ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Tadqiqot natijalari asosida Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines the scientific and theoretical foundations of foreign investment and loans, specifically the views of mercantilism, classical economists, Keynesian theory, and neoliberalism. It explores the role and significance of foreign investment and loans in the innovative development of New Uzbekistan. The volume and share of foreign investment and loans allocated to fixed assets in 2020-2025, as well as the volume of foreign investment and loans for fixed assets aimed at creating new fixed assets, are analyzed, and important scientific conclusions are drawn. Based on the research results, proposals and recommendations are developed to ensure the effective use of foreign investment and loans in the innovative development of the economy of New Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ investitsiya, xorijiy investitsiya, kredit, xalqaro moliya institutlari, innovatsiya, Yangi O'zbekiston, asosiy kapital, samaradorlik, tashqi qarz, raqobatbardoshlik, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish, tashqi moliyaviy resurslar, investitsiya muhiti.

❖ investment, foreign investment, credit, international financial institutions, innovation, new Uzbekistan, capital, efficiency, external debt, competitiveness, modern technologies, production, external financial resources, investment climate.

Kirish.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining kuchayishi,

mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayishi hamda xalqaro moliyaviy resurslar harakatining faollashuvi natijasida xorijiy

investitsiya va kreditlarni jalb qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish uchun tashqi moliyaviy manbalarga ehtiyoj sezmoqda. Jahon iqtisodiyoti esa murakkab muammolarga duch kelishda davom etmoqda: qarzlarining ortishi, yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi o'sishining doimiy pasayishi, geosiyosiy keskinliklar va savdo va investitsiya oqimlaridagi tarkibiy o'zgarishlar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasida (UNCTAD – United Nations Conference on Trade and Development) va Jahon investitsiyalari bo'yicha hisobotda qayd etilishicha, "Global miqyosdagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ketma-ket ikkinchi yil davomida pasayib bormoqda. Eng keskin pasayish keng ko'lamli infratuzilma va rivojlanish uchun juda muhim bo'lgan xalqaro loyihalarni moliyalashtirishda kuzatildi. 2024-yilda energiya va gaz ta'minotiga investitsiyalar 28 foizga, qayta tiklanadigan energiya loyihalarini moliyalashtirish esa 16 foizga kamaydi" [1]. Ushbu sohalarga investitsiyalarning ushbu salbiy tendentsiyasini bartaraf etish nafaqat kapitalni – ham davlat, ham xususiy – ko'paytirishni, balki investitsiya oqimlarini uzoq muddatli barqaror rivojlanish maqsadlari bilan chuqurroq muvofiqlashtirishni ham talab qiladi.

Xorijiy investitsiya oqimlari milliy iqtisodiyotga zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv tajribasi, innovatsion yechimlar hamda qo'shimcha moliyaviy resurslarni olib kirishi bilan muhim ahamiyatga ega. Ular sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar tomonidan taqdim etiladigan kreditlar iqtisodiy

islohotlarni amalga oshirish, infratuzilmani rivojlantirish, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, transport, energetika, sanoat va qishloq xo'jaligi kabi strategik sohalarda bunday moliyaviy resurslar iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida ham iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, investitsion muhitni yanada yaxshilash, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois xorijiy investitsiya va kreditlarni samarali jalb qilish, ulardan oqilona foydalanish va investitsiya faoliyatini takomillashtirish masalalarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish bo'yicha ko'plab xorijlik va mahalliy iqtisodchi-olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Merkantalizm namoyondalari (XVI-XVII asrlar) hisoblanmish Tomas Man, Jan-Batist Kolber, Antuan de Monkretyen kabilar "xorijiy investitsiyalardan mamlakatning oltin va valyuta zaxiralarini ko'paytirish uchun foydalanish kerak, deb hisoblashgan. Ular texnologiya va kapital importini rag'batlantirgan, ammo kapitalni chet elga eksport qilishni cheklagan" [2]. "Merkantilizm maktabi olimlarining investitsiyalarning roli va davlatning faol ishtiroki haqidagi g'oyalari o'sha davrdagi ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan" [3].

Mumtoz (klassik) maktab vakillaridan A. Smit, D. Rikardo, Dj. Mill, J.B. Sey, T. Maltusning ilmiy asarlarida: "pul va kapital tushunchalari xususiyatlarining aniq ajratib ko'rsatilishi; investitsiya resurslarini shakllantirishda kapital to'plashning rolini aniqlash; investitsiyalarni rivojlantirishda

kredit pullarining rolini o'rganish; investitsiya qilingan kapitaldan foydalanish hajmi oshgani sayin uning daromadlilik darajasini pasaytirish jarayonining obyektivligini namoyish etish; investitsiyalar hajmining oshishi va mamlakatning iqtisodiy o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik mexanizmini aniqlash; davlat noishlab chiqarish investitsiyalarining ko'lamini aniqlash va investitsiya resurslarini milliy iqtisodiyot bo'ylab taqsimlashni optimallashtirish sxemasini taklif qilish; xalqaro investitsiya migratsiyasi mexanizmini o'rganish uchun asos yaratdilar" [4].

Keynschilik nazariyasiga ko'ra "investitsiyalar ishlab chiqarish iste'molini kengaytirish, izdan chiqqan umummilliy proporsiyalarni tiklash vositasidir. Investitsiyalar qiymati bilan milliy daromad o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlik multiplikator tamoyilini qo'llash asosida aniqlanadi. Shunga ko'ra, investitsiyalarning har qanday o'sishi iste'molning katta solishtirma hissasi va o'sish sur'atlariga qaraganda daromad, bandlik va ishlab chiqarishning ko'proq darajada yanada proporsional o'sishini ta'minlaydi. Davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning samaradorligi investitsiyalar uchun mablag'lar topish, imkoni boricha aholini ish bilan to'la band qilish va foiz me'yorini qat'iy belgilashga bog'liq bo'ladi. Foiz stavkalari qanchalik past bo'lsa, investitsiyalarga rag'bat shunchalik ko'payadi, investitsion talab oshadi, bandlik o'sadi, ishsizlik kamayib boradi" [5]. Jon Maynard Keyns tomonidan ishlab chiqilgan kapitalning marjinal samaradorligi konsepsiyasiga ko'ra "Sof foyda investitsiyalarga bo'lgan talabning motivasion omilidir. Keyns buni joriy xarajatlar va amortizatsiya qoplangandan keyin qolgan sof tushum sifatida ta'riflagan. Investitsiyalar amalga oshirilganda emas, balki kelajakda natijalar berganligi sababli, asosiy vositaning butun muddati davomida kutilgan foydani hisobga olish kerak" [6].

Investitsiyalarga oid ba'zi neoliberal qarashlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: kapital daromadiga soliqlarni kamaytirishni qo'llab-quvvatlash – neoliberallar bu investitsiyalarni rag'batlantirish va dinamik iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur, deb hisoblashadi; investitsiya daromadiga soliqlarni oshirishga qarshilik – neoliberallar bunday o'sish investitsiyalar va iqtisodiy o'sishni susaytirishi mumkinligiga ishonishadi; kapital harakati erkinligi – neoliberallar mintaqalar o'rtasida kapital harakatining to'liq erkinligi iqtisodiy o'sishga va resurslarga kirishni yaxshilashga olib keladi, deb hisoblashadi. Neoliberalizm tarafdorlaridan Valter Oyken, Lyudvig Erxard, Alfred Myuller-Armak, Milton Fridmen, Fridrix Xayeklarning fikricha, "xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishda muhim omil deb hisoblashadi. Ular ochiq iqtisodiyotni yaratish va kapitalning erkin harakatlanishini qo'llab-quvvatlaydilar" [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada iqtisodiyotga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish holati tahlilini amalga oshirishda taqqoslama tahlil, statistik tahlil, qiyoslash, ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi innovatsion texnologiyalar va investitsiya faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqobatbardoshlikni oshirish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim vazifalar sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ajratiladigan kreditlar iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlashda muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Ular orqali mamlakatga zamonaviy texnologiyalar,

boshqaruv tajribasi va ilmiy-texnik bilimlar kirib keladi.

Innovatsiya ("ingliz tilida innovation – kiritilgan yangilik, ixtiro" [8]) texnika va texnologiyalarning yangi avlodlarini joriy etish maqsadida iqtisodiyotga sarflangan mablag'larni, investitsiyalarni anglatadi hamda ilg'or texnika-texnologiya, boshqaruv va boshqa sohalarda yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanilishini, joriy qilinishini ifodalaydi.

Innovatsion iqtisodiyot – bu ilm-fan, texnologiya va bilimlarga tayangan holda shakllanadigan zamonaviy iqtisodiy tizim bo'lib, unda yangi g'oyalar, ilg'or texnologiyalar, raqamli yechimlar va ilmiy tadqiqotlar asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bunday iqtisodiyotda intellektual kapital, kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash hamda global raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, innovatsion iqtisodiyotda startaplar, ilmiy-tadqiqot markazlari, oliy ta'lim muassasalari va biznes subyektlari o'rtasidagi integratsiya kuchayadi.

Innovatsion iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ❖ ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (R&D) katta e'tibor berish;
- ❖ yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning rivojlanishi;
- ❖ raqamli iqtisodiyotni shakllantirish;
- ❖ bilimlarga asoslangan ishlab chiqarish tizimining ustunligi.


Bu jarayonlarni amalga oshirishda investitsiyalar, ayniqsa xorijiy investitsiya va kreditlar ulkan ahamiyatga kasb etadi. 2020-2025-yillar davomida asosiy kapitalni moliyalashtirishda ijobiy tendensiyalar kuzatildi (1-rasm).

Birinchidan, 2020-2025-yillar mobaynida asosiy kapitalga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar 4,7 barobarga oshib, 422,1 trln. so'mni tashkil qilgan. Bunday holat O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiya siyosati faollashib borayotganligini hamda iqtisodiyotga tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish siyosatining samaradorligini ko'rsatadi. Bunday dinamik o'sish quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- ❖ investitsiya muhitini liberallashtirish;
- ❖ tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi;
- ❖ yirik infratuzilma va sanoat loyihalarining amalga oshirilishi;
- ❖ davlat tomonidan investorlarga berilayotgan moliyaviy imtiyozlar.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining o'sib borishi sanoatni modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish kabi strategik vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bir vaqtning o'zida xorijiy investitsiyalar o'sishining iqtisodiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, ya'ni investitsiyalar asosiy kapitalni yangilash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga xizmat qiladi;
- texnologik modernizatsiya, xususan, xorijiy investitsiyalar orqali mamlakatga zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv usullari, innovatsion ishlab chiqarish modellari kirib keladi;
- eksport salohiyatini oshirish, ya'ni sanoat va energetika sohalariga kiritilgan investitsiyalar eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirmoqda;
- eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratish, jumladan, yirik investitsiya loyihalari yangi korxonalar tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.



1-rasm. 2020-2025-yillarda asosiy kapitalga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi va salmog'i [9]

Ikkinchidan, tahlil qilingan davr oralig'ida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi 28,7 foizli bandga oshib, 71,4 foizga teng bo'lgan. Bu O'zbekiston iqtisodiyotida tashqi moliyaviy resurslarning ahamiyati sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnologiyalarni joriy etish va investitsiya faolligini oshirish nuqtai nazaridan ijobiy holatdir. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlar ulushining 28,7 foizli bandga o'sishi mamlakat investitsiya siyosatida muhim tarkibiy o'zgarishlar yuz berganini anglatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan bu holat milliy iqtisodiyotga tashqi moliyaviy resurslar jalb etish mexanizmi kuchayganligini, davlat tomonidan investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini va xalqaro investorlar uchun mamlakatning investitsion jozibadorligi ortganini ifoda etadi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar ulushining 71,4 foizga yetgani investitsiya faoliyatida tashqi manbalar yetakchi o'rinni egallayotganini ko'rsatadi. Iqtisodiy nazariyaga ko'ra, investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ulushining

ortishi davlat budjetiga tushadigan moliyaviy yukni kamaytiradi, xususi va xalqaro kapital ishtirokini kuchaytiradi va iqtisodiyotda bozor mexanizmlarining rolini oshiradi. Bu jarayon iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va sanoatni texnologik jihatdan yangilash uchun zarur moliyaviy resurslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy investitsiyalar ulushining yuqori bo'lishi iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga xizmat qiladi. Buning asosiy sabablari sifatida zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi, yuqori samarali ishlab chiqarishni tashkil etish, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishni misol qilib keltirish mumkin. Natijada iqtisodiyotda kapital qo'yilmalarning samaradorligi ortib, mamlakatning xalqaro iqtisodiy raqobatbardoshligi kuchayadi.


Shu bilan birga, xorijiy investitsiya va kreditlar ulushining juda yuqori bo'lishi ayrim iqtisodiy xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Masalan: tashqi qarz yukining ortishi; ayrim strategik tarmoqlarda tashqi kapitalga yuqori darajada bog'liqlik; global moliyaviy bozorlardagi o'zgarishlarga sezuvchanlikning kuchayishi. Shu sababli investitsiya siyosatida muvozanatli yondashuv muhim ahamiyatga ega hamda investitsiya siyosatida ichki va

tashqi manbalar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, asosiy kapitalga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida kreditlar ulushining ortib borishi iqtisodiyotga qisqa muddatda qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish imkonini bersada, uzoq muddatli istiqbolda ayrim makroiqtisodiy va moliyaviy xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Xorijiy kreditlar hisobiga amalga oshirilgan investitsiyalar kelgusida qarz majburiyatlarini qaytarish talabini yuzaga keltiradi. Agar kreditlar hajmi jadal sur'atlarda o'ssa, bu davlat yoki korporativ sektorning tashqi qarz yuki ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Tashqi qarz hajmining ortishi davlat budjeti xarajatlarining bir qismi qarz xizmatini to'lashga yo'naltirilishiga, fiskal barqarorlikning pasayishiga va investitsiya resurslarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Xorijiy kreditlar, odatda, chet el valyutasida (asosan AQSh dollari) jalb qilinadi. Milliy valyuta qadrsizlanishi holatida qarzni qaytarish qiymati oshib ketadi. Bu esa davlat va korxonalar uchun qarz yukini og'irlashtiradi, tashqi qarz barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi va valyuta bozorida bosimni kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, xorijiy kreditlar hisobiga amalga oshirilayotgan yirik loyihalar ayrim hollarda tashqi moliya institutlari yoki investorlar shartlari asosida amalga oshiriladi. Bu holat iqtisodiy siyosatda muayyan darajada

tashqi omillarga bog'liqlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda bu holat qarzga bog'liq iqtisodiy rivojlanish (debt-dependent growth) deb baholanadi. Boz ustiga, xorijiy kreditlar hisobiga moliyalashtirilgan investitsiya loyihalari yetarli iqtisodiy samara bermasa, qarzlarni qaytarishda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatlarda investitsiyalarning iqtisodiy qaytim darajasi pasayadi, davlat yoki bank sektorining moliyaviy barqarorligiga xavf tug'iladi hamda "samarasiz qarz" muammosi yuzaga keladi. Umuman olganda, asosiy kapitalga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida kreditlar ulushining yuqorilab borishi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim moliyaviy resurslarni ta'minlasada, uzoq muddatli istiqbolda tashqi qarz yukining ortishi, valyuta xavflari, investitsiya samaradorligi bilan bog'liq muammolar va makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sir kabi xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli investitsiya siyosatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushini oshirish, tashqi kredit mablag'laridan samarali foydalanish va qarz barqarorligini ta'minlash kabi choralarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

2020-2025-yillar mobaynida yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 4,1 barobarga oshib, 35,5 mlrd. AQSh dollariga yetgan (2-rasm).



2-rasm. 2020-2025-yillarda yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. AQSh dollari [9]

Bu mamlakat iqtisodiyotida kapital qo'yilmalar faolligi sezilarli darajada kuchayganini anglatadi. asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Chunki bunday investitsiyalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga, texnologik modernizatsiyani amalga oshirishga va infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi. 35,5 mlrd. dollarlik investitsiya hajmi mamlakatda sanoat, energetika, transport va boshqa strategik tarmoqlarda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat foydalaniladigan binolar, inshootlar, texnologik uskunalar, transport vositalari kabi moddiy aktivlarga xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish orqali ushbu aktivlarni yangilash va kengaytirish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, mahsulot tannarxini kamaytiradi hamda eksportbop mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytiradi. Shu nuqtai nazardan, asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalarning o'sishi iqtisodiyotning texnologik yangilanishini tezlashtiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Bir vaqtning o'zida investitsiyalarning o'sishi mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Investitsiyalar hajmining ortishi kapital zichligini oshiradi, mehnat unumdorligini ko'paytiradi va ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi. Natijada iqtisodiyotda multiplikativ ta'sir yuzaga keladi, ya'ni investitsiya loyihalari nafaqat investitsiya qabul qilgan tarmoqda, balki boshqa sohalarda ham iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar asosan quyidagi tarmoqlarga yo'naltirilmoqda: energetika va qayta tiklanuvchi energiya manbalari – neft-gaz va kimyo sanoati; transport va logistika infratuzilmasi; metallurgiya va mashinasozlik; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash. Bu tarmoqlar iqtisodiyotning yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan sohalari hisoblanadi. Shu sababli

investitsiyalar ushbu sohalarga yo'naltirilishi iqtisodiyotning tarkibiy diversifikatsiyasini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish jarayonida xorijiy investitsiyalar va kreditlar muhim moliyaviy manba sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va ochiq investitsiya siyosati natijasida xorijiy kapitalni jalb qilish hajmi izchil o'sib bormoqda.

2020–2025-yillar davomida asosiy kapitalga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining bir necha barobarga oshishi, jumladan yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan investitsiyalar hajmining 4,1 barobarga oshib 35,5 mlrd. AQSh dollariga yetgani, mamlakat iqtisodiyotida investitsiya faolligining sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi. Shuningdek, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi 71,4 foizga yetgani iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda tashqi moliyaviy resurslar muhim o'rin egallayotganini tasdiqlaydi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar iqtisodiyotning energetika, sanoat, transport, infratuzilma va qishloq xo'jaligi kabi strategik tarmoqlariga yo'naltirilishi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish jarayonlarini jadallashtirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, investitsiyalarning tarkibida xorijiy kreditlar ulushining ortishi kelgusida tashqi qarz yukining ko'payishi, valyuta xavflari va ayrim tarmoqlarda tashqi kapitalga bog'liqlikning kuchayishi kabi muayyan iqtisodiy xavflarni ham yuzaga

keltirishi mumkin. Shu sababli investitsiya siyosatini amalga oshirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushini oshirish, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini ta'minlash hamda ichki investitsiya manbalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, xorijiy investitsiyalar va kreditlar Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish va mamlakatning xalqaro iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Kelgusida investitsiya siyosati samaradorligini yanada oshirish orqali iqtisodiyotning barqaror va innovatsion rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Olib borilgan tahlillar asosida Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin.

1. Xorijiy investitsiyalar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushini oshirish zarur.

2. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish kerak. Xorijiy investitsiyalarni, avvalo, yuqori texnologiyali va innovatsion tarmoqlarga yo'naltirish zarur. Bunda raqamli iqtisodiyot, biotexnologiya, qayta tiklanuvchi energiya, axborot texnologiyalari kabi sohalarga investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotning texnologik rivojlanishini tezlashtiradi.

3. Mamlakatda investitsiya jozibadorligini oshirish uchun huquqiy va institusional mexanizmlarni yanada takomillashtirish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda investorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish, lisenziya va ruxsat berish jarayonlarini yanada soddalashtirish kabi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

4. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalarni tanlashda ularning iqtisodiy samaradorligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Buning uchun investitsiya loyihalarini kompleks iqtisodiy baholash, investitsiya qaytimini tahlil qilish, risklarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

5. Xorijiy investitsiyalar geografiyasini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq davlatlari bilan investitsiya hamkorligini rivojlantirish orqali investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish mumkin. Bu iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy omillarga bog'liqligini kamaytiradi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda muhim moliyaviy va texnologik manba hisoblanadi. Ularni samarali boshqarish, investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish va innovatsion tarmoqlarga yo'naltirish orqali mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *World Investment Report 2025: International investment in the digital economy* | UN Trade and Development (UNCTAD), shortened website link - <https://surl.li/daswwy>

2. Ученые меркантилизма про инвестиции, сокращённая ссылка на сайт - <https://surl.cc/xbdxfu>

3. Галкина И.В. История экономических учений: учеб.-метод. пособие. М-во трансп. и коммуникаций Респ. Беларусь, Белорус. гос. ун-т трансп. – Гомель: БелГУТ, 2019. – 86 с.

4. Бондарь А.В. История экономических учений: Электронное учебное пособие. – Минск. БГЭУ, 2022. – 226 с.

5. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Издательство иностранной литературы, 1948. – 454 с. <https://u.eruditor.one/file/2518702/>
6. Кейнсианцы про инвестиции, сокращённая ссылка на сайт - <https://surl.li/fjhvpe>
7. Электронное издание на основе печатного издания: Рождение неолиберальной политики. От Хайека и Фридмена до Рейгана и Тэтчер / Д.Стедмен-Джоунз; пер. с англ. А.А.Столярова. – Москва; Челябинск: Социум; Мысль, 2017. – 522 с.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati, qisqartirilgan formatdagi sayt havolasi - <https://surl.li/ddsrcx>
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining tegishli yillardagi statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan. www.stat.uz